



Specific characteristics of the media in increasing the social activity of citizens in the New Uzbekistan

Bakhodir ESHBEKOV¹

Uzbekistan State University of World Languages

ARTICLE INFO

Article history:

Received December 2023

Received in revised form

15 December 2023

Accepted 20 January 2024

Available online

25 February 2024

Keywords:

independence,

Uzbek society,

democracy,

blogger,

freedom,

document,

Third Renaissance,

mass media,

press freedom,

"fourth power".

ABSTRACT

In this article, the role of mass media in the life of the state and society in the society of Uzbekistan, in its short years of independence, in the history of independent and New Uzbekistan, its development trends and legislative reforms in this regard, as well as the development of a democratic society and the period of rapid reforms and important aspects of creating a competitive system are considered.

2181-1415/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol5-iss1-pp80-88>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Yangi O'zbekistonda fuqarolar ijtimoiy faolligini oshirishda oavning o'ziga xos xususiyatlari

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

istiqloq,

O'zbekiston jamiyati,

demokratiya,

blogger,

erkinlik,

hujjat,

Uchinchi Renessans,

OAV,

matbuot erkinligi,

"to'rtinchi hokimiyat".

Mazkur maqolada O'zbekiston jamiyatida, uning qisqa davrlik istiqloq yillarida, mustaqil va Yangi O'zbekiston tarixida ommaviy axborot vositalarining davlat va jamiyat hayotida tutgan o'rni, uning rivojlanish tendensiyalari va bu borada qonunchilikdagi islohotlar hamda demokratik jamiyatni rivojlantirish va jadal islohotlar davriga mos va raqobatbardosh tizimni yaratishning muhim jihatlarini ko'rib chiqilgan.

¹ PhD, Head of the Department of Youth Work, Spirituality and Education, Uzbekistan State University of World Languages.

Особенности СМИ в повышении социальной активности граждан в Новом Узбекистане

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

независимость,
узбекское общество,
демократия,
блоггер, свобода,
документ,
Третий Ренессанс,
средства массовой
информации,
свобода прессы,
«четвертая власть».

В данной статье рассматривается роль средств массовой информации в жизни государства и общества, особенно в Узбекистане в период его короткой истории независимости. Описываются тенденции развития страны и законодательные реформы в этой сфере, а также развитие демократического общества в период быстрых реформ и важные аспекты создания конкурентоспособной системы.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda matbuot va ommaviy axborot vositalarini liberallashtirish hamda rivojlantirish, “jamiyatda soʻz erkinligini taʼminlashning ijtimoiy-siyosiy mohiyatiga qaratilgan, demokratik talab va standartlarga toʻla javob beradigan 10 dan ziyod qonun va 150 dan ortiq qonunosti hujjatlari qabul qilinib”, bu borada mustahkam huquqiy baza yaratildi. Jumladan, “axborot, matbuot va ommaviy axborot vositalar faoliyatiga oid “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari toʻgʻrisida”, “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar toʻgʻrisida”, “Telekommunikatsiyalar toʻgʻrisida”, “Ommaviy axborot vositalari toʻgʻrisida”, “Reklama toʻgʻrisida”gi va shu kabi 20 dan ortiq Qonunlar va qonun osti hujjatlari qabul qilindi. Bu qonun hujjatlari asosida mamlakatimizda matbuot va OAV tizimidagi oʻzgarishlar, yangilanishlar yangi davrni boshlab berdi. Bu orqali eng tezkor va muhim xabarlarini berib boruvchi ijtimoiy tarmoqlarning milliy Internet portallar tizimi kengaymoqda.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev taʼkidlab oʻtganlaridek: “Keyingi yillarda mamlakatimizda ommaviy axborot vositalarini xalq bilan muloqotning ishonchli koʻprigiga aylantirish, zamonaviy axborot xizmatlari bozorini, sogʻlom raqobatni rivojlantirish, media tarmoqlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ustoz-shogird anʼanalarini kuchaytirish, soha xodimlarining mashaqqatli mehnatini munosib ragʻbatlantirish boʻyicha keng koʻlamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Ana shunday yuksak eʼtibor tufayli yurtimizda ommaviy axborot vositalari soni 2016-yilga nisbatan qariyb 30 foizga ortib, 1962 taga yetgani diqqatga sazovordir. Ayniqsa, xususiy media vositalari hayotimizdan keng oʻrin egallab borayotgani jamiyatimizda fikrlar xilma-xilligini taʼminlashda, tub islohotlarni amalga oshirishda, joylarda yoʻl qoʻyilayotgan kamchilik va muammolarni dadil koʻtarib chiqishda muhim omil boʻlmoqda.

Bu haqda soʻz yuritganda, televideniye va Internet tarmogʻini integratsiya qilish maqsadida zamonaviy internet platformasi va uning mobil ilovasi tashkil etilgani, milliy axborot makonimizda internet nashrlarining soni soʻnggi 6 yilda salkam ikki barobar koʻpayib, 677 taga yetganini alohida taʼkidlash lozim”.

Jamiyatda soʻz va matbuot erkinligini taʼminlash borasidagi qabul qilinayotgan qonunlar va ularga kiritilayotgan oʻzgartirish, qoʻshimchalar fuqarolarning axborot olish huquqini va davlatning ichki va tashqi siyosati ochiqligi va oshkoraligini taʼminlashga, milliy axborot makoni rivojida toʻgʻri va ishonchli maʼlumotlar berish, fuqarolarning oʻz

huquq-erkinliklari va qonuniy manfaatlariga taalluqli qonunlar va qonun osti hujjatlari bilan yaqindan tanishishga, jamiyatda jamoatchilik nazorati instituti faoliyatini takomillashuviga xizmat qilmoqda.

Davr bilan hamnafas bo'lish uchun bugun ommaviy axborot vositalarining ham moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ularni so'ngi rusum zamonaviy axborot texnika va texnologiyalari bilan jihozlanishini ta'minlash zarur. Bu borada juda insonning ongini milliy ruhda dunyoviylashtirish borasida ko'plab ishlar ijtimoiy-siyosiy g'oyalar va loyihalar qilinayotganligi ma'lum. Natijada matbuot nashrlari yangi formatga o'tib, tizimda qayta yozib chiqish amaliyotidan voz kechildi. Barcha jarayonlar elektron tizimda amalga oshirilib, teleradio mahsulotlarini tayyorlash ham o'ziga xos bosqichlarda, ya'ni, tasvirga olish, matn yozish, intervyularni tozalash va montaj qilish ishlarini talab etgan bo'lsa, bugun zamonaviy texnologiyalar yordamida bevosita voqea joyida to'g'ridan-to'g'ri axborot berish imkoni yaratildi. Ijtimoiy tarmoqlarda esa dunyoning istalgan burchagidagi voqea-hodisalar haqidagi axborotni o'sha vaqtning o'zida yetkazilayotganligini barchamiz ko'rib, kuzatib bormoqdamiz. Albatta, mazkur ijtimoiy jarayonlarning bu tarzda shiddatlashuvi axborot tarqatuvchining u jurnalist yoki blogger bo'ladimi kuchli bilim va salohiyatli, madaniyatli va ma'rifatli bo'lishini taqozo etadi. Eng asosiysi, berilayotgan maqola, eshittirish, ko'rsatuv va ijtimoiy tarmoqlardagi axborotlarni xolis baholovchi o'quvchi, tinglovchi, muxlis va kuzatuvchilarning ham kun sayin siyosiy dunyoqarashi, dunyoviy bilim va malaka saviyasi ortib borayotganligidadir. Shu bois matbuot, ommaviy axborot vositalari xodimlari, ijtimoiy tarmoq vakillari xolis, chuqur tahliliy va mulohazali axborotlarni yozishi, tayyorlashi va tarqatishi zarur.

Aytish joizki, "2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da jamoatchilik bilan muloqot, fuqarolarning davlat boshqaruvi ishidagi faol ishtirokini ta'minlash va jamoatchilik nazoratini o'rnatishda OAV rolini oshirishga alohida to'xtalib o'tilgan. Darhaqiqat, OAV o'z vazifasi nuqtai nazaridan jamiyatda umumiy kayfiyatni shakllantiruvchi eng sog'lom g'oyalar atrofida fuqarolarni birlashtiruvchi, yo'naltiruvchi kuch hisoblanadi. Uning aholi qatlamining barcha yo'nalishlariga kirib borishi, qamrab olishi muhim ahamiyatga ega. Ikkinchi tomondan, so'zning qudrati va jozibasi o'zini to'la namoyon etmog'i lozim. Bunda jurnalist mahorati, matbuot xodimlarining kasbiy, ijodiy mahorati va mas'uliyati muhim ahamiyatga ega. Demakki, matbuotning hozirjavoblighi, prinsipiialligi, islohotlar jarayonini butun mohiyati bilan tushunib targ'ib eta olishi odamlar siyosiy ongini yuksaltirishda eng muhim vositadir.

"Erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda nodavlat notijorat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalarini qo'llab-quvvatlashni davom ettiramiz.

... Navbatdagi muhim masalaga e'tiboringizni qaratmoqchiman.

Ommaviy axborot vositalari mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli o'zgarishlarni xolis yoritish bilan birga, joylardagi mavjud dolzarb muammolarga davlat idoralari va jamoatchilik e'tiborini qaratib, ularni bartaraf etishga barcha darajadagi rahbarlarni da'vat etib, undab kelayotganini alohida ta'kidlab o'tmoqchiman. Ular tom ma'noda "to'rtinchi hokimiyat"ga aylanib bormoqda.

Ma'lumki, OAV to'rtinchi hokimiyat sifatida fuqarolik jamiyatining asosini tashkil qiladi. OAV erkinligini ta'minlash orqali ijtimoiy-siyosiy hayotning zarur, muhim muammolarini ilgari surish, jamiyat a'zolarini o'ylandirayotgan, mavjud bo'lgan muammolarini keng xalq ommasiga havola qilish, jamiyatni boshqaruv tizimi faoliyati hamda qabul qilayotgan qarorlariga xolisona baho berishga erishish mumkin.

Achchiq va tanqidiy materiallar joylardagi ko'plab amaldorlarga yoqmasligi, ularning tinchini va halovatini buzayotgani ham bor gap. Lekin oshkoralik va so'z erkinligi bu – davr talabi, bu – O'zbekistondagi islohotlarning talabi" ekanligini ta'kidlar ekan, davlatimiz rahbari ommaviy axborot vositalarining erkin va xalqchil materiallarni tayyorlab, ommaga yetkazib borishi muhim ahamiyat kasb etishiga urg'u beradi.

Yurtboshimiz bugungi globallashuv davrida axborot makonidagi jiddiy kurashlar, raqobat va axborot xurujlari avj olayotgan bir paytda xalqimizning ayniqsa, yoshlarimizning to'g'ri xolis fikrlaydigan, o'zaro mehr-oqibatli, ona-Vatanga, xalqiga sadoqatli qilib tarbiyalashda jurnalist va blogerlarning o'rni, mas'uliyati katta ekanligini, ular ham zamonga hamohang faoliyat olib borishlari lozimligini ta'kidlaydi. Bu borada Prezident Sh.Mirziyoyev fikr bildirar ekanlar: "Eng asosiysi ommaviy axborot vositalari mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli o'zgarish va yangilanish jarayonlarini har tomonlama tahlil qilib, joylardagi ijtimoiy muammolar, xato va kamchiliklar davlat idoralari va jamoatchilik e'tiborini qaratayotganini alohida qayd etish lozim", deb ta'kidlaydi.

O'zgarish, yangilanish va rivojlanishlar eng avvalo, odamlarning ongu-shuurida yuksak ma'naviyat, adolatli jamiyat, xalqparvar davlat tushunchalarini his qilishlari uchun keng imkoniyatlar yaratib bermoqda. Bu o'z navbatida, qishloq va ovullarimiz qiyofasi tubdan o'zgarib, ijtimoiy infratuzilma, xizmat ko'rsatish va servis, ishlab chiqarish tarmoqlari kirib bormoqdaki, bu o'zgarishlarga hamohang ravishda odamlarimizning turmush shart-sharoitlari yaxshilanib borishlari bilan bilan bir qatorda, ularning tafakkur tarzi, dunyoqarashi ham o'zgarayotganligiga guvoh bo'layapmiz. Albatta, jamiyat ijtimoiy siyosiy tafakkurini yuksaltirishda ommaviy axborot vositalari, davlat boshqaruvi organlari axborot xizmatlari va ijtimoiy tarmoqlarning o'rni beqiyosdir. "Biz jamiyatimizda demokratiya, ochiqlik, oshkoralik, erkinlik muhitini yaratyapmiz va bu yo'li qat'iy davom davom ettiramiz, so'z va ijod erkinligini ta'minlash, ommaviy axborot vositalarini har tomonlama rivojlantirish masalasi bundan buyon ham doimo e'tiborimiz markazida bo'ladi. Faqat axborot maydonida faoliyat ko'rsatayotgan jurnalist va blogerlarimizdan iltimosimiz shuki, bu borada qabul qilingan qonun talablari hammaga birdek barobar ekanini esdan chiqarmaslik kerak", deydi davlatimiz rahbari.

Jamiyatda barchamiz bo'layotgan o'zgarishlarga birdek mas'ul ekanligimizni, yoshlarga ta'lim-tarbiya berishda zamon bilan hamnafas bo'lish lozimligini unutmasligimiz darkor.

Har bir sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning tub mohiyatini xalqqa yetkazish, joylardagi mavjud muammolar va ularning yechimlari xususida ommaviy axborot vositalari orqali berilayotgan materiallar bugun jamiyatda ijtimoiy-siyosiy fikrni shakllantirishga xizmat qilishini ko'rsatish lozim. Odamlar voqelikdagi bo'layotgan voqea-hodisalarning oddiy kuzatuvchisi emas, faol ishtirokchisiga aylandi. Inson qadrini ulug'lash, uning ijtimoiy muhitini yaxshilash uchun hududda maishiy ehtiyojlar, ta'lim yoki tibbiy xizmatdagi muammolarni mas'ul shaxslar tomonidan vertikal ravishda hal etishning ilmiy tizimi shakllanib, mahalliy hokimlik, vazirlik va idoralar, ijtimoiy tarmoqlar saytlari, xalq qabulxonasi, Prezident virtual qabulxonalarigacha bo'lgan jarayonda izchillik va mantiqiylik vujudga keldi. Fuqarolarning murojaatlari belgilangan tartib-tamoyillar asosida o'rganilib, ularga qonuniy choralar va yechimlar topish, xalqning ehtiyojlarini o'rganish yo'lga qo'yildi.

Keyingi yillarida mamlakatimizda yangi davlat va jamiyat qurish borasida asrlarga tatigulik ishlar amalga oshirildi. Mehnatkash, tanti va mehmondo'st xalqimizning bukilmas irodasi va jasorati bilan e'tirofga molik ishlar amalga oshirildi.

Mamlakatimizni rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar sirasiga qo'shish obyektiv zarurat, eng muhim strategik vazifaga aylandi.

Biz jahonda sodir bo'layotgan voqealarga ommaviy axborot vositalari orqali nazar tashlaydigan bo'lsak, kuniga yangidan-yangi muammolar, qaysidir davlatda ixtirolar bo'layotganligiyu, qaysidir davlatda pandemiyaning insoniyatga tahdidi, yana qaysi birida esa terrorizm va ekstremizmning avj olishini ko'rishimiz mumkin. "Bugun ommaviy axborot vositalarida "yovuzlik o'qi" deb singdirilgan qator-qator davlatlar beqarorlik, yovuzlik, kambag'allik, nochorlik o'chog'iga aylanayotganligi – taassufki, navbatdagi "antiterror" operatsiyalarning natijalaridan ravshanlashib bormoqda". Bulardan oqilona xulosa chiqarish, har bir mintaqa va qit'ada sodir bo'layotgan voqealarga ogohlik bilan yondashish bizning bosh maqsadimiz bo'lishi lozim.

Biz barchamiz tevarak-atrofimizda bo'layotgan islohotlardan samarali foydalanishimiz, turli buzg'unchi g'oyalardan ogoh va hushyor bo'lib, ajdodlarimiz milliy g'oyasini kelajakka to'g'ri yetkazishimiz lozim. Bugungi kunda "ommaviy axborot vositalari, shu jumladan, global internet tarmog'i orqali tarqalayotgan buzg'unchi g'oyalar, g'arazli axborotlar, odob-axloqni yemiruvchi illatlar, yoshlarni zalolatga boshlovchi "jozibador" tasvirlar va media mahsulotlar tarqalishining oldini olishga qaratilgan ishlarning natijadorligi sezilmayapti. Demak, biz barcha sohalaridagi ma'naviy-ma'rifiy ishlarimizga yana bir qayta tanqidiy yondashib, o'z oldimizga yangi chora-tadbirlarni belgilab olishimiz, o'z Vataniga mustahkam e'tiqodi bilan xizmat qiladigan fidoyi fuqarolarimizni yanada ko'paytirishimiz kerak.

Amalga oshirilayotgan islohotlarimiz o'zining ijobiy samarasini berib, ma'lum marralarni zabt etish barobarida, hali oldimizda bartaraf etilishi lozim bo'lgan ayrim xato va kamchiliklardan ham mantiqiy xulosalar chiqarish asosida demokratik jamiyat barpo etishga e'tibor qaratildi. Tarixiy jarayonlar, murakkab va tahlikali davrning turli muammo va vazifalarini oldimizga ko'ndalang qo'ydi.

"O'tgan asrning boshlarida yurtparvar, millatparvar bobolarimiz jadidchilik harakati orqali yangilanish va erkinlik, adolat va tenglik, ilm-ma'rifat va milliy o'zlikni anglash g'oyalarini xalqning ongiga singdirishga kirishgan. Bu ulug' zotlarning maqsadi – jaholat va qoloqlik girdobida qolib kelayotgan Turkiston xalqini dunyoviy ilm-fan, ilg'or kasb-hunarlar bilan qurollantirib, umumbashariy rivojlanish yo'liga olib chiqishdan iborat edi".

Ma'lumki, o'sha davrlarda bolsheviklar, ya'ni chor Rossiyasi o'z ta'sirini ko'rsatayotgan, Turkiston xalqini o'ziga tobe qilish, ularni o'zlarining g'oyaviy qarashlari bilan sug'orish, madaniy-ma'naviy merosini yo'qotishga harakat qilayotgan edi. Bu davrda kishilik tamadduni taraqqiyotining rivojida ulkan hissi bor xalqni o'z qarashlariga qaytarish oson emas edi. Mana shu davrda buyuk ajdodlarning munosib vorisi sifatida yangi bir harakat yuzaga keldi. Jadidchilik harakati a'zolari o'z davrining odamlar ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishga jiddiy kirishgan. Ular o'z qarash va g'oyalarini endi shakllanayotgan dastlabki ommaviy axborot vositalaridan biri bo'lgan gazeta nashrlari orqali ommaga etkazishga harakat qilishgan. Jadidchilik harakatining asoschisi Mahmudxo'ja Behbudiy mana shunday og'ir bir paytda, ya'ni 1913-yil aprel oyidan boshlab, "Samarqand" gazetasini chiqara boshladi. "Gazeta turkiy va forsiy tillarda, haftada ikki marta, dastlab ikki, so'ng to'rt sahifada chop etilgan. Gazetaning 45-soni chiqib, moddiy tanqislik tufayli nashrdan chiqishdan to'xtagan edi. Biroq, Mahmudxo'ja Behbudiy o'sha yilning 30-avgustidan "Oyna" jurnalini chiqara boshlaydi.

Haftalik, suratlik bu jurnal, asosan, o'zbek tilida bo'lib, unda ixcham forsiy she'r, maqolalar, ruscha e'lonlar ham berib boriladi. Kavkaz, Tatariston, Yeron, Afg'oniston, Hindiston va Turkiyagacha tarqalar edi. Jadidlarning sevikli jurnallari edi...", deb yozgan edi taniqli jadidchi-olim Ziya Said.

O'zbekiston taraqqiyotining keyingi bosqichida bevosita ommaviy axborot vositalarining ochiq, oshkora va shaffofligiga katta e'tibor qaratildi. Maqsad joylardagi amalga oshirilayotgan ishlar, yangilanish va yaratuvchiliklarni, qilinishi lozim bo'lgan, yechimini kutayotgan muammolarni davlat boshqaruvi organi mutasaddilari oldiga qo'yish va o'z vaqtida yechim topish munosabatini olish tizimi shakllandi. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev: "Har safar men ommaviy axborot vositalari haqida gapiraman. Ular ham mana shu zamonga munosib bo'lib adolat nuqtai nazaridan maqolalar chiqarayapti, adolat nuqtai nazaridan borib hokimlarga savol berayapti. Hokimlar besh yil oldin ommaviy axborot vositalaridan yiroq bo'lar edi. Umuman bizda muhit yo'q edi bunaqa, yo'q edi muhit muloqot yo'q edi. Hozir yopiq emas, hamma narsa ochiq odamlar bilan ochiq siyosat yurgizishni davom ettirishimiz kerak", deydi. Haqiqatdan ham bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan davr, axborot texnologiyalarining rivojlanayotganligi, berilayotgan imkoniyatlar ochiqlik siyosatining olib borilayotganligi fuqarolarning jamiyatdagi har qanday holatga nisbatan o'z fikr va munosabatlarini ochiq oshkora bildirishi uchun zamin yaratdi. Bevosita davlatimiz rahbarining "Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak", degan tamoyili asosida ishlar yo'lga qo'yildi.

Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev 2021-yil fevralida jurnalistlar bilan suhbatda "adolatni yetkazishdan to'xtamaslik" lozimligini aytgan edi. Adolat mezonini o'zining asosiy dastagi – asosiy qoidasi qilib olgan har qanday turdagi ommaviy axborot vositaga bugun davlat va jamiyat ijobiy fikr bildiradi, qo'llab-quvvatlaydi.

Davlatimiz rahbari aytganidek, bugun hech bir murojaat e'tibordan chetda qolmaydi. Ochiqlik va oshkoralikning yaqqol ko'rinishi sifatida fuqarolarimizning joylarda amalga oshirilayotgan islohotlar va o'zgarishlarga, mavjud muammo va kamchiliklarga nisbatan o'z fikrini erkin bayon qilish imkoniyati yaratilganligi bilan ifodalash mumkin. Endilikda ularda mavjud muammolar yechimi yuzasidan Qayerga? Qanday tartibda? murojaat qilish ko'nikmasi paydo bo'ldi. Bu erkin va hurfikirlik, ochiqlik siyosatining bir ko'rinishidir. Ochiqlik, tenglik, adolatlilik, ulug' ajdodlarga hurmat tamoyillarini o'z ichiga singdirgan "Yangi O'zbekiston" g'oyasi xalqimizning qalbidan chuqur joy olib, umummilliy harakatga aylanib ulgurdi. Pirovardida ulug' ajdodlarimiz, umuman olganda, milliy tariximizda Birinchi va Ikkinchi uyg'onish davrlariga asos solgan alloma bobolarimizning orzu-intilishlari ro'yobi sifatida "Yangi uyg'onish" davriga asos solinmoqda.

Qalbimizda faxr-iftixor tuyg'ularini jo'sh urdiruvchi tamaddunga asos solgan buyuk ajdodlarimizga munosib voris sifatida yangi davr poydevori qo'yilmoqda. Bu o'zligimizni anglashga olib keladi hamda mamlakatning iqtisodiy, madaniy taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradi. Bunday ijtimoiy noyob hodisa "Renessans" – uyg'onish, qayta tiklanish, yuksalish, deb atalishi barchamizga ayon.

Uchinchi Renessans sari ildamlashimizda ommaviy axborot vositalarining jamiyatdagi rolini yanada kuchaytirish lozim. Bugun shiddat bilan rivojlanayotgan davr odamlar ong-shuurida faqat yaratuvchilik va bunyodkorlik, yurt taraqqiyoti uchun daxldorlik hissi bilan yashashni ta'minlanishida bevosita ommaviy axborot vositalariga

nihoyatda ulkan va mas'uliyatli vazifalarni qo'ymoqda. Birgina ilm-fan rivojida insonlarning ijtimoiy-siyosiy tafakkurini zamonaviylik bilan boyitib borish, axborot maydonidagi rolini yangilash, bu boradagi qilingan va qilinishi lozim bo'lgan ishlarni yanada oshirish muhimdir. Odamlarda ijtimoiy-siyosiy tafakkur rivojlanishi natijasida "axborotlashgan jamiyatda nafaqat turmush tarzi, ma'naviy qadriyatlar tizimini o'rganadi, moddiy boyliklarga faqat jamg'arma sifatida qarashlar o'rniga madaniy hordiq chiqarish, intellektual boylik orttirish vositasi sifatida yondashuvning ahamiyati ortadi". Albatta, kishilik jamiyati taraqqiyoti davridan ma'lumki, ajdodlarimizning boy ilmiy-ma'naviy merosini o'rganish va yoshlarga o'rgatish naqadar muhimdir.

Gazeta, jurnal, televideniye, radio yoki elektron ommaviy axborot vositalarida dunyo ilm-fani tamaddunida munosib hissasi bo'lgan al-Xorazmiy, Al-Beruniy, Ibn Sino, Umar Hayyom, Mirzo Ulug'bek kabi buyuk ajdodlarimizning boy va bebaho ilmiy, ma'naviy, tarixiy merosi haqida turkum maqola, ko'rsatuv va eshittirishlar tayyorlab, efirga uzatilmoqda. Yoshlarimizga buyuk ajdodlarning hayot yo'llari, bizga qoldirgan boy ma'naviy merosi haqida qancha ko'p ma'lumot bersak, ularning ong-shuurida o'tmish ajdodlarga munosib qilib tarbiyalasak, bu o'zining ijobiy samarasini berishi shubhasiz.

Darvoqe, bugun mamlakatimizda kelajak vorislari uchun barcha sharoit va imkoniyatlar yaratilmoqda. Yoshlar tarbiyasi davlat siyosati darajasigacha ko'tarilganligi bevosita ta'lim-tarbiya jarayonlaridagi keng ko'lamli islohotlarning olib borilayotganligi Uchinchi Renessans poydevoriga asos bo'lishiga xizmat qiladi. Jumladan, "bugungi kunda bog'cha yoshidagi 2,7 mln. bolaning qariyb 69 foizi maktabgacha ta'lim bilan qamrab olingan. 2017-yilda bu ko'rsatkich 27,7 foiz bo'lgan bo'lsa, ayni paytda ular bilan esa jami 116 996 nafar pedagog shug'ullanadi".

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni imkon qadar ta'limga qamrab olinishining o'ziyoq bolalar ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, ular ongida ijtimoiy moslashuvchanlik, fikrlash va o'z qarashlarini erkin bayon etishini ta'minlashga zamin yaratadi. Bugungi bog'chaga borayotgan bola bilan bundan 10-15 yil oldingi shu yoshdagi bola bilan o'rtasida anchagina farq borligini ijtimoiy hayot isbotlamoqda. Chunki, bugun ular ongiga ta'sir qiluvchi birlamchi vosita olayotgan axborot makoni kengayib ketdi. Misol uchun oddiygina mobil aloqa vositasini aksariyat yoshi ulug'larimizdan ko'ra 4-7 yoshdagi bolalarimiz yaxshi tushunishadi. Nima uchun deganda, bugun ularning o'rganishi uchun imkoniyat, ijtimoiy muhit mavjud. Biz falsafa ilmini o'rganishimiz orqali tabiat va jamiyat qonuniyatlarini eng umumiy tomonlarini yanada chuqurroq anglaymiz. O'z navbatida esa, tabiat va jamiyat taraqqiyotining umumiy qonuniyatlaridan xabardor bo'lish, inson ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, voqelikdagi ijtimoiy tajribani egallab, barkamol shaxs bo'lib etishida, to'g'ri yo'l topishida yordam beradi. Demak, "bolalarni yoshlikdan tarbiya jarayoni ijtimoiy-siyosiy ong asosida tarix haqiqati va estetik qonuniyatlar ruhida kamol toptirish muhim ahamiyat kasb etadi".

Mamlakatimizda ilm-fanga, uning rivojlanishiga katta e'tibor berilayotgan bugungi kunda hech shubhasiz yoshlarimiz ertagi kelajak uchun o'zlarini har tomonlama namoyon etadilar. Xususan, Birinchi va Ikkinchi Renessans davrida jahonga tanilgan ajdodlardek bo'lish bu farzandlarimiz uchun xos xususiyatdir. Bugun davlatimizni dunyoning rivojlangan davlatlari qatoriga olib chiqishning yagona yo'li bu ilm-fanni yanada rivojlantirish, uning yutuqlarini hayotga tatbiq etishdir. Ayni shu maqsadda bugun yangi O'zbekistonda keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu esa, tabiiyki mamlakatimizda Uchinchi Renessansni amalga oshirish uchun zamin yaratmoqda.

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-siyosiy muhitning mavjudligi, odamlarning taraqqiyot sari harakat qilishlari, milliy g'oya negizida birlashishi o'zining samarasini bermoqda. Bugun "har bir vatandoshimiz, millati, tili, dini, mavqei va mansabidan qat'i nazar, vatan menga nima berdi deb emas, balki men vatanga nima berdim, uning ravnaqi yo'lida nima ish qildim, degan e'tiqod bilan yashashi lozim". Albatta, bunda har kimning o'z imkoniyati va tafakkur tarzi, dunyoqarashi nuqtai nazaridan yondashishi lozim bo'ladi. Oddiygina qilib aytganda, oilada farzandlarni Vatanga sadoqat, o'zaro mehr-oqibatli qilib tarbiyalash, ularning ilm olishiga e'tibor qaratish ham o'ta muhim omil hisoblanadi. Misol uchun, daraxtga o'z vaqtida berilgan e'tibor, to'g'ri agrotexnik tadbirlar mevasining totli va sifatli bo'lishini ta'minlagani kabi ta'lim-tarbiyaning farzand kamoli va istiqbolidagi o'rnini hech narsa bilan taqqoslab bo'lmaydi.

Umuman olganda, Uchinchi Renessans milliy g'oyaning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy drayveriga aylanishi zarur. Milliy g'oyani jonlantirish uchun uni ilm-fanni yangi bosqichga olib chiqish, ziyolilarning rolini jamiyatda yuksaltirish lozim. Ana shundagina ko'zlangan maqsadimiz uchinchi Renessansni tezroq amalga oshirib, Vatanimizni yanada obod va ko'rkam maskanga aylantirib, dunyoning rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlari qatoridan munosib o'rin olishiga erishamiz. Biz dunyoning e'tibori va e'tirofidagi mamlakatga, buyuk ajdodlarimizning munosib vorislariga aylanamiz. Bu ulkan maqsad sari qilingan qadam xalq xohish irodasiga munosib tarzda amalga oshadi.

Milliy g'oya joriy vazifalarni emas, balki strategik oliy maqsadni ifodalaydi. Bugun oldimizga maqsad qilib qo'ygan Uchinchi Renessans uchun mustahkam poydevorini qurish, bu yo'lda maqsadlar mushtarakligi va mafkuraviy salohiyatini ta'minlash oldimizdagi eng ustuvor vazifalardan biridir. Bunda buyuk ajdodlarimizning bizga qoldirgan boy tarixiy, moddiy va ma'naviy merosi ularga munosib voris ekanligimizni ko'rsatishda dasturi amal bo'lib xizmat qilmog'i lozim. Uchinchi Renessansni barpo etish yo'lida xalqimiz turli mayda masalalarga, guruhbozlik, mahalliychilik, ayirmachilik, mafkuraviy mutaassiblikning har xil ko'rinishlariga chalg'imasligi kerak. tarix saboqlarini unutishga haqqimiz yo'q.

Uchinchi Renessans g'oyasi milliy ruhiyatimizga, xalqimiz armon-orzusiga yaqin. Zotan, xalq ilgari oqqan daryosi yana oqishini astoydil istaydi. Avvalo, tushuncha mazmunini aniq ochib berish, aholining barcha qatlamlari, avvalo, yoshlar ongiga etkazish kerak. Uchinchi Renessans bizdan xalqaro hamjamiyatga ilm-fan, texnologiyalar, axborot, madaniyat va iqtisodiyot sohalarida yanada chuqurroq integratsiya bo'lishini talab etadi. Ammo o'zligimizni, tilimizni, milliy xususiyatlarimizni, ma'naviyatimizni saqlab qolishimiz shart. Bu esa, ta'lim-tarbiya tizimiga jiddiy e'tibor qaratishni bildiradi.

Ommaviy axborot vositalari haqida gap ketganda, bir muhim me'yoriy-huquqiy hujjatni ham nazardan chetda qoldirmaslik kerakki, bu ham bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-iyundagi "Ommaviy axborot vositalarini qo'llab-quvvatlash va jurnalistika sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hisoblanadi. Mazkur Qarorda ommaviy axborot vositalari faoliyatini zamon talablari asosida tashkil etishni har tomonlama qo'llab-quvvatlash; kadrlar salohiyati va raqobatbardoshligini yanada oshirish, jurnalistika sohasini rivojlantirish; jurnalistlar va ommaviy axborot vositalari hamjamiyatlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash; ommaviy axborot vositalarining samarali faoliyat olib borishi uchun moddiy-texnika baza va infratuzilmani yaxshilash borasidagi bir qator chora-tadbirlar belgilab beriladi. Bundan shu narsa aniqlanadiki, ommaviy axborot vositalarining qonuniy manfaatlarini himoya

qilishni kuchaytirish, ular faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, kadrlar salohiyati va raqobatbardoshligini yanada oshirish, jurnalistika sohasini rivojlantirish davlat siyosatining muhim tarmog'iga aylanib ulgurdi.

Umuman olganda, yurtimizda ommaviy axborot vositalarining rivojlanishi barcha sohalar uchun ijobiy ahamiyat kasb etib, joylardagi muammolarni o'z vaqtida hal qilish imkoniyatini bermog'da. Shu esa, har bir rahbar va xodimlarning mas'uliyat bilan o'z vazifalarini bajarishga undaydi. Bu vazifalarni bajarishda har bir shaxs o'zining fuqarolik burchi orqali o'z siyosiy irodasini namoyon etib, odamlarni birlashtirishga, ezgulikka intilsa ijobiy yutuqlarga erishib boriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Президент Шавкат Мирзиёевнинг 27.06.2022 йилдаги Матбуот ва оммавий ахборот воситалари ходимларига байрам табриги. [Elektron manba:] <https://president.uz/uz/lists/view/5294>.

2. Ҳаракатлар стратегияси асосида жадал тараққиёт ва янгилаш сари. /Нашрга тайёрловчилар: М.Бекмуродов, Қ.Қуронбоев, Л.Тангриев. –Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2017. –Б.92.

3. Маматов Ғ.С. Ахборотлашган жамиятда жамоатчилик назорати ва давлат ахборот сиёсатининг уйғунлиги (Ўзбекистон Республикаси мисолида)/ Сиёсий фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD) ...дисс. –Т.: 2020. –Б. 17.

4. Qarang: Жўраев Н. Тарих фалсафасининг назарий асослари. –Т.: Маънавият, 2008. –Б 413-414.

5. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий мажлисга Мурожаатномаси (2020 йил 29 декабрь). [Elektron manba:] [https://nrm.uz/contentf?doc=646642_o'zbekiston_respublikasi_prezidenti_shavkat_mirziyoevning_oliy_majlisga_murojaatnomasi_\(2020_yil_29_dekabr\)&products=1_vse_zakonodatelstvo_uzbekistana](https://nrm.uz/contentf?doc=646642_o'zbekiston_respublikasi_prezidenti_shavkat_mirziyoevning_oliy_majlisga_murojaatnomasi_(2020_yil_29_dekabr)&products=1_vse_zakonodatelstvo_uzbekistana).

6. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 29.12.2020. [Elektron manba:] https://uza.uz/uz/posts/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoevning-oliy-mazhlisga-murozhaatnomasi_198650.

7. Янги Ўзбекистон демократик ўзгаришлар, кенг имкониятлар ва амалий ишлар мамлакатига айланмоқда. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг “Янги Ўзбекистон” газетаси бош муҳаррири Салим Дониёровнинг саволларига жавоблари. [Elektron manba:] <http://uza.uz/posts/293336>.

8. Президент Шавкат Мирзиёев Тошкент вилоятидаги сайловчилар билан учрашувдан.

9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 27 июндаги “Оммавий ахборот воситаларини қўллаб-қувватлаш ва журналистика соҳасини ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-294 қарори. "Халқ сўзи", 2022 йил 28 июнь.